

## QO'LLANILISH DOIRASI CHEGARALANGAN LEKSEMALARNING USLUBIY XUSUSIYATI

### METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF LEXEMAS WITH LIMITED SCOPE OF APPLICATION

### МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЛЕКЗЕМ С ОГРАНИЧЕННОЙ СФЕРОЙ ПРИМЕНЕНИЯ

Andijon davlat pedagogika instituti  
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
208-guruh talabasi **Najmiddinova Namunaxon Zaynobiddin qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali qo'llanilishi chegaralangan leksemalarning xususiyati o'rganamiz. Bunday leksemalarga eskirgan va yangi, sheva va kasb hunarga oid leksemalar, atamalar, jargon, argo, vulg'ar va varavar leksemalar kiradi. Nutqda bu kabi leksemalar ham muhim uslubiy vazifa bajaradi. Arxaizm badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini berish uchun qo'llansa, tarixiy leksemalardan o'tmish voqeligini jonli ifodalash maqsadida foydalaniladi. Sheva leksemalari mahaliy ruhni ifodalashda qo'llanilsa, atama ilmiy va badiiy asarda fan-texnikaga oid tushunchalarni ifodalashda uchun qo'llaniladi, jargon esa, ma'lum toifaga mansub kishilar nutqini berish uchun zarur. Bu qo'llanishi chegaralangan leksemalarning badiiy uslubdagi vazifasi hisoblanadi.

**Abstract:** Through this article, we will study the characteristics of lexemes with limited use. Such lexemes include old and new, dialect and professional lexemes, terms, slang, slang, vulgar and general lexemes. In speech, such lexemes also perform an important stylistic function. If archaism is used in artistic or popular works to give speech an ironic, humorous spirit, historical lexemes are used in order to vividly express the reality of the past. If the lexemes of the dialect represent the local spirit, the term is used to express concepts related to science and technology in scientific and artistic works, and slang is necessary to give the speech of people belonging to a certain category. This is the function of lexemes with limited use in artistic style.

**Аннотация:** Благодаря этой статье мы изучим особенности лексем, использование которых ограничено. К таким лексемам относятся старые и новые, диалектные и профессиональные лексемы, термины, сленговые, сленговые, вульгарные и общие лексемы. В речи подобные лексемы выполняют также важную стилистическую функцию. Если в художественных или популярных произведениях архаика используется для придания речи иронического, юмористического духа, то исторические лексемы используются для яркого выражения действительности прошлого. Если лексемы диалекта отражают местный дух, термин используется для выражения понятий, связанных с наукой и техникой в научных и художественных произведениях, а сленг необходим для передачи речи людей, принадлежащих к определенной категории. Это функция лексем с ограниченным употреблением в художественном стиле.

**Kalit so'zlar:** dialektizm, sheva, argo, jargon, arxaizm, varvar, vulg'ar.

**Key words:** dialectism, dialect, slang, jargon, archaism, barbarian, vulgar.

**Ключевые слова:** диалектизм, диалект, сленг, жаргон, архаизм, варварский, вульгарный.

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek milliy tilining oliy formasi-ishlov berilgan me'yorlashtirilgan, millat vakillarining barchasi uchun umumiy bo'lgan barqaror shakldir. Demak, u milliy tilga zid qo'yilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning yuqoriroq bosqichi, tartibga solingan bosh ko'rinishi xolos. Dialekt (sheva) - umumxalq tilining ma'lum etnik guruhlariga mansub ko'rinishi. U ilmiy terminologiyada dialektizm deb yuritiladi. Misollar: kalapo'sh (Buxoro) – do'ppi, g'oz (Xorazm) – yong'oq, mishiqlik (Farg'ona) – mushuk, paku (Samarqand) – ustara.

Dialektal so'zlar:

leksik(so'z): qumursqa – chumoli;

morfologik: -da o'rnida -ga ishlatilishi;

fonetik; ena – ona, jur – yur ko'rinishlarga ega.

Ayrim leksemalar adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma'noda ishlatiladi. Masalan: pashsha leksemasi badiiy til lug'atida “yozgi qo'sh parda qanotli hashorat” deb izohlangan. Biroq ayrim shevada u pashsha leksemasi o'rnida ishlatiladi. “Ikki qanotli, uzun mo'ylovli qon so'ruvchi mayda hashorat” sememasiga ega bo'lgan chivin leksemasi esa, pashsha leksemasi o'rnida

ishlatiladi. Masalan: Ajal yetmay o'lmas Boysunning xoni, Besabab chiqmaydi chivinning joni (“Alpomish”) gapidagi chivin leksemasi kunduzi uchadigan qo'ng'ir – qora tusli mayda hashoratni ifodalasa, atrofda g'uv-g'uv pashsha: oyoqlarga yopishadi, burun kataklariga suqiladi, quloqni uzadi( Oybek)-gapida pashsha so'zi mazkur hashoratning atamasi. O'zbek tilida shevalar uch lahjaga birlashadi: qarluq- chigil-uygur lahjasi, og'uz lahjasi, qipchoq lahjasi. Kasb- hunar terminlari turli kasb-hunar egalari nutqida qo'llaniluvchi leksemalar hisoblanadi.

Kasb- hunar atamalari shu hunar egasi qaysi sheva vakili bo'lsa, shu sheva leksikasiga kiradi. Bizning Vatanimiz qadim-qadimdan hunarmandlar o'lkasi bo'lgan, shu bois bizda kasb-hunarlar va ularning atovchi so'zlar juda ko'p. Jumladan, kulolchilik, duradgorlik, ko'nchilik, chorvachilik, dehqonchilik kabi sohalarga oid leksikalar mavjuddir. Bir buyum, narsani turli kasb kishilari tomonidan xilma – xil (masalan: “qozon”- qandolatchilarda “potila” va boshqalar) nomlanishi ham kasb-hunar terminlarini yuzaga keltirishi mumkin. Xalqning og'zaki ijodi, shevalari singari yozma adabiyot ham har doim lug'at tarkibini turli-tuman kasb-hunarga oid so'z va terminlar hisobiga boyitilib kelgan. O'tmishda ham, hozirgi kunda ham yozuvchi va shoirlarning ijodida xalq kasb-hunar terminlari ko'plab ishlatilgan. Bu hol yozuvchi ijodida fikrlar, voqea va hodisalarning ijtimoiy hayot va mehnat bilan bog'lanilishi asarda ishlab chiqarish manzarasini paydo etish va personajlarini so'zlatish natijasida yuz beradi. Kasb-hunarga oid so'z –terminlarning ana shunday shevalar va og'zaki adabiyotlarda ishlatilishi va iste'moldagi leksikada keng qo'llanilishi natijasida ular tilning asosiy lug'at tarkibidan o'rin oladi.

Jargon ham qo'llanishi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi. Jargon (fransuzcha g'argon- “buzilgan til”) kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida sotsial guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og'zaki nutqida ishlatadigan va ma'nosini boshqalar ko'p hollarda anglab yetavermaydigan birliklarga Jargon deyiladi. Masalan, programmistlar jargon, talabalar jargoni, mahbuslar jargoni, o'g'rilar jargoni, artistlar jargon, va hakazo.

Jargon umumxalq tilidan maxsus leksikasi va frazeologiyasi hamda yasovchi vositalarining o'ziga xos tarzda qo'llanishi bilan farqlanadi:

- 1) Talabalar jargoni: [yopmoq]- (sessiyani tugatmoq), [воздух]- (stipendiya), [yaxlamoq]- (imtixonidan qaytmoq), [quloq] - (chaqimchi), [chizmoq]- (qochmoq),





- 2) Yoshlar jargoni: [g'isht]-(xunuk), [sindirmoq]- ( lol qoldirmoq), [крутой]- (ketvorgan), [рисовка]- (ko'z-ko'z qilmoq), [uxlatmoq]- (aldamoq), [стрелка]-(uchrashuv), [tashlashmoq] ( tortishmoq), [baks]- (dollar), [muzlatmoq]- (harakatdan to'xtatmoq);
- 3) Harbiy xizmatchilar jargoni:  
[dux]- (yangi kelgan askar), [salyaga]- (bir ikki oy xizmat qilgan askar) ,  
[fazan]- (xizmatning yarmini o'tagan askar), [дед]- (xizmatdan qaytishi yaqinlashgan askar), [diskoteka]- (oshxona naryadi).

Jargonlar tarkibi boshqa tillardan olingan o'zlashma birlik bilan boyib boradi. Tez-tez yangilari bilan almashib turadi. Jargonlar va argolar- biror argo yoki jargonga xos leksemalar. Argo va jargonlar biror ijtimoiy gurux yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o'g'rilik, olib sotarlar, poraxo'rlik va boshqalarning yasama tilidir. Shuning uchun argo va jargonlarning iltimoiy dialektlar deb ham yuritiladi.

Argo (fransuzcha - argot) ayrim professional yoki sotsial guruxning o'ziga xos tili hisoblanadi. Argo bir nechta til unsurlaridan iborat qarishiq va ko'p hollarda , boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo'ladi.

Argo tili o'z gramatikasiga ega emas unda umumxalq tili gramatikasiga tayaniladi. Argo ikki maqsadning biri uchun qo'llaniladi: 1- fikrini sir tutish, 2- o'zini ajratib ko'rsatishdir.

Argo nutqda kommunikatsiya predmetini sir tutish maqsadida qo'llanadi:

- 1) O'g'rilar nutqida : mandarin (tilla), aqula (panjarani kesish uchun moslama), kalamush (o'z yaqinlarinikiga tushadigan ), urkagan (tajribali o'g'ri);
- 2) Mahbuslar nutqida: maymun (oyna), shobla (qaloblar guruxi), bashli (pul), —krokodil (qaychi), lebed (geroin), ment (militsoner), — xafa qilmoq (zo'rlamoq), pushka (pistolet). Argotizmlar turli koloniya, turma, gurux va hududlarda farqlanadi.

Argo ham jargon kabi so'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda sotsial-ramziy vazifa bajarish uchun ishlatiladi. Argotizmlar yashirin ma'no ifodalaydi. Masalan, otarchilar orasida-yakan(“pul”), ichuvchilar orasidan (“araq”), (“vino”) kabi so'zlardir. Argo ham asl jargonizmning bir ko'rinishi bo'lib, tarbiyasi buzuq, qo'li egri shaxslar orzusidagi shu guruxning o'zigagina tushunarli ma'noda ishlatiladigan

leksemalar yig'indisidan iborat. ( fransuzcha argot- “lahja”) Masalan, loy-(pul ma'nosida), xit-(havf ma'nosida) qo'llanadi. Qiziqishlar, mashg'ulotlar, yoshlari bir xil bo'lgan juda tor doiradagi kichkina- kichkina ijtimoiy gurux va to'dalar, o'zlariga xos didlar va talablar yoki ichki zaruriyat hamda ehtiyojlaridan farqli bo'lgan alohida so'z va iboralarni ishlatadilar. Bunday so'z va iboralar jargonlar yoki (ma'nosiga qarab esa,) argolar deyiladi. Ammo o'zbek tilshunosligida jargon va argo ilmiy tadqiq qilinmagan.

Varvarizm (yunoncha: barbaros-aynan ajnabiy)- boshqa tildan olingan; o'zlashgantiruvchi tilga to'la singib ketmagan so'z va iboralardir. Varvarizmlar asosan so'zlashuv uslubiga xos, tilning badiiy me'yorini buzadi va uning asosiy lug'at tarkibiga kirmaydi. Masalan: varvarizmlar iyemni (“Xanka”, “Tanka”), pulni (“ko'kidan” bormi – dollar bormi), lavozim va shaxsni (“mer”, “shef”, “bos”, “baron”) va hakazoni anglatadi, shuningdek mazax qilishda ham foydalaniladi. O'zbek til davlat tili maqomini olgach, turli tillardan ayniqsa, rus tilidan kirgan varvarizmlardan ( madam, bratan, zemlyak, paxan, dedulya va boshqalar) o'zbek so'zlashuv tili faol tozalana boshladi. Varvarizmlar baiiy asarlarda ham uchrab turadi. Masalan; Asadbek molodes! Visshiy klass!- dedi u. – Aniq topibdi. Endi u bilan hazllashib bo'lmaydi. (T.Malik) Ushbu nutqiy parchada gramatik-sintaktik varvarizm “molodes” va “visshiy” so'zlaridir.

Vulg'arizmlar- haqorat ma'nosida qo'llaniladigan so'zlardir. Bularga misollar: xunasa, dayus, so'tak, to'ka kabilar kiradi. Bunday leksemalar yoki ularning vulg'ar ma'nolari badiiy tilda til birligi sanalmaydi. Ularni qo'llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi. Ammo badiiy asar tilida bunday so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Masalan: U qizig'ar mashinasini Qoraqamishga qarab uchirdi. (T.Malik) Yolg'on gapirasan, xunasa, uyida bo'lmagansan. Ayvoni yo'q uning Hosilboyvachchaga qarab aytib qo'y: senikini artkuncha, o'zinikini eplasin. Kelib-kelib o'shandan panoh izladingmi, e so'tak! (T.Malik) Anavi to'nkani nima qilamiz?- dedi Asadbek, jahlidan tushib... (T.Malik) -Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib, mening birdan-bir boqib qo'ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padar la'natlar? (G'.Gulom .Shum bola)

Xulosa: Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotidagi o'zgrishlar albatta tilga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksemalar garchi, iste'mol doirasi chegaralanmagan leksemalar singari lug'at tarkibida ko'p miqdorda o'rin egallamagan bo'lsada, qo'llanilish doirasi chegaralangan leksemalarning

ahamiyati o'ziga xos hisoblanadi. Masalan, jargonlar va vulg'arlar badiiy asarlarda uslubiy va ramziy ma'nolarning beruvchi nutq orqali ifodalansa, dialekt va kasb-hunar terminlarini deyarli har doim nutqimizda faol iste'mol qilamiz. Biroq bu leksemalar umumxalq tiliga mansub bo'lmaganligi bois ularni qo'llanilishi ma'lum guruhlar orasida kechadi. Xulosa qilib aytishimiz joizki, leksemalarning qo'llanilish doirasidagi har ikkala (chegaralangan va chegaralanmagan) jihati ham ma'lum ma'noda tilimizda o'ziga yarasha vazifa kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) H.A. Jamolxonov “Hozirgi o'zbek adabiy tili” 1-qism. Toshkent -2004
- 2) X.Muhiddinova, D.Xudayberganova, I.Umirov, N.Jiyanova, T.Yuspova “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. To'ldirilgan 2- nashri . “O'qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2006
- 3) R.R. Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, L.R.Raupova, M.M. Qurbonova, M.Q. Abuzalova, D.N. Yo'ldasheva. “Hozirgi o'zbek adabiy tili “ Toshkent “Innovatsiya –Ziyo” 2020
- 4) B.R.Mengliyev “Hozirgi o'zbek adabiy tili” (Kirish. Fonetik sath. Leksik-semantik sath) “Tafakkur bo'stoni” nashriyoti Toshkent-2018
- 5) R.R.Sayfullayeva “Hozirgi o'zbek adabiy tili’ Toshkent-2009
- 6) O'zMe. Birinchi jild. Toshkent-2000
- 7) M.D. Mamatova “Kasb-hunar leksikasi” Maqola.

# Research Science and Innovation House

